

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазиранлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI217-223

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI224-228

Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISH METODIKASI229-233

Pirimova Nargiza Adilovna
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH234-239

Tangirqulov Elmurod Aliyarovich
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI240-244

Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI245-258

Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR
TUSHUNCHASI259-265

Valieva Xolida
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI266-271

Djumayeva Dildora Isroilovna
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI272-277

Davlatova Nilufar Vosiljonovna
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI278-285

Mamaraimova Zebo Shafokatovna
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK
TAMOYILLARI286-290

Turayev Yolqin Sherzod o'g'li
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI291-295

Abdurasulova Shoira Kushakovna
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH296-305

Sottarov Abduvali Umirqulovich
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI
SIFATIDA306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

10.00.00-Филология фанлари

Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna
Tadqiqotchi, Toshkent davlat transport universiteti
sidiknazarovaz@mail.ru
<https://orcid.org/0000-0002-3708-5250>

BADIIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz badiiy tarjimani tahlil qilishga asos bo'lgan nazariy asoslarni o'rganamiz. Badiiy tarjima – bu nafaqat tilni balki, estetikani ham chuqur tushunishni talab qiladigan ixtisoslashgan sohadir. Adabiyot, she'riyat yoki kino kabi badiiy asarlarni tarjima qilish so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishdan tashqariga chiqadi. Bu asl asarning mohiyati, uslubi va badiiy niyatini aks ettirishning murakkab vazifasini o'z ichiga oladi.

Tayanch so'zlar: lingvistik tadqiqot, badiiy niyat, tarjima amaliyoti, uslub, kommunikativ munosabat, pragmatik aspekt, lingvistik tarjima, san'at asarlari.

Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna
Base doctoral student
Tashkent State Transport University

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE ANALYSIS OF ARTISTIC TRANSLATION

Annotation. In this article, we consider the theoretical foundations of the analysis of artistic translation. Artistic translation is a specialized field that requires a deep understanding of language and aesthetics. Translating works of art such as literature, poetry or cinema goes beyond translating words from one language to another. This includes the difficult task of conveying the essence, style, and artistic intent of the original work.

Keywords: linguistic research, artistic intention, translation practice, style, communicative attitude, pragmatic aspect, linguistic translation, works of art.

Сидикназарова Зульфия Миршараповна
Базовый докторант
Ташкентский государственный
университет транспорта

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация. В данной статье мы рассматриваем теоретические основы анализа художественного перевода. Художественный перевод — это специализированная область, требующая глубокого понимания языка и эстетики. Перевод произведений искусства, таких как литература, поэзия или кино, выходит за рамки перевода слов с одного языка на другой. Это включает в себя сложную задачу передачи сути, стиля и художественного замысла оригинальной работы.

Ключевые слова: лингвистическое исследование, художественный замысел, практика перевода, стиль, коммуникативная установка, прагматический аспект, лингвистический перевод, произведения искусства.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N05>

Kirish. Tarjima nazariyasi keyingi paytlarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Olimlar tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish, shu asosda tarjima amaliyoti ravnaqi uchun zarur ilmiy umumlashmalar yaratish ishiga chinakamiga kirishib ketdilar. Mazkur sa'y-harakatlar asosan tarjimaning tadqiqotchilar tomonidan nutq faoliyatining alohida ko'rinishi sifatida tan olinayotganligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, endilikda tarjima masalalari ko'proq tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Tarjima amaliyotini tom ma'noda tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurligi to'g'risidagi fikr, aniqrog'i, tarjimashunoslikni tilshunoslikning ajralmas bo'lagi sifatida tan olish taxminan o'tgan asrning 70-yillari oxirigacha A.V.Fedorov va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilib, ko'proq grammatik holatlar munosabatidan kelib chiqib tarjimalar sifati to'g'risida xulosalar chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, o'sha yillarda ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortgan tarjimashunoslikning tilshunoslik yo'nalishi ahamiyatini aslo kamsitmaydi[1]. Bu yo'nalish, aksincha, hozirgi paytda tarjima lingvistikasi deb nomlanayotgan tarjimaning tilshunoslik tadqiqining vujudga kelishi uchun katta turtki bo'ldi va uning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarjima nazariyasini tom ma'nodagi tilshunoslik muammosi tarkibiga kiritish joizligi tadqiqotning kommunikativ nuqtai nazardan olib borilishini taqozo etadi. Kommunikativ munosabat tillararo muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha omillarni hisobga oladi. U tarjima qilinayotgan matn tarkibida mujassamlashgan ma'lumotlardan tashqari yana axborot beruvchining matn tashqarisida aks etgan muloqot maqsadini hamda tarjimonning bayon etilgan fikrni to'g'ri qabul qilish uchun zaruriy ma'lumot, bilim va malakaga ega bo'lishini ham nazarda tutadiki, mazkur omillar tarjima tilida teng qiymatli kommunikativ ta'sirchanlik yaratish imkoniyatini beradi. Tarjima jarayoniga bunday munosabat tarjima nazariyasini lingvistik tadqiqotning alohida mustaqil sohasi sifatida ajratish joizligini belgilaydi. Keng tarqalgan tillararo kommunikatsiya amaliyoti, xususan tarjima faoliyati tilshunoslik fanining doimiy kuzatuvida bo'lishi lozim deb yozgan edi R.Yakobson. Yangi — tarjimaning tilshunoslik fani tarkibida tadqiq qilinishi lozimligi haqidagi nuqtai nazar vujudga keldiki, tarjima amaliyotini tadqiq qilish shu yo'l bilan olib borilgandagina tilshunoslikning ayni tarmog'i ko'proq taraqqiy etadi, takomillashadi[2].

Lingvistik tarjima nazariyasining vazifasi tarjima jarayoni tizimi tarkibini aniqlash va shu asosda tarjima amaliyoti uchun zarur bo'lgan umumiy qonuniyatlarni muayyan qilishdan iboratdir. Lingvistik tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi qonuniyatlarini muayyan qiladi, o'rganadi va modellashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqotchi tahlil paytida nutqiy jarayonning birlamchi tilda tashkil etilishini va tarjima tilida unga kommunikativ jihatdan teng qiymatli nutqiy jarayonning yaratilishini kuzatib boradi. Birlamchi va tarjimon tomonidan yaratilgan matnlarning kommunikativ muvofiqligiga asl nusxada aks etgan axborotning adekvat qayta yaratilganligidan dalolat beradi.

Lingvistik tarjima nazariyasining afzalligi shundan iboratki, u tarjima amaliyotining ijodiy xususiyatini e'tirof etgani va uning boy tajribasiga tayangani holda, lisoniy-uslubiy dalillar asosida asar matnining qiyoslanayotgan tillardagi nutqiy tuzilishni ongli ravishda ilmiy tahlil etadi va shu asosda muayyan tanlangan tarjimaviy variantning ayni holat uchun maqbul yoxud nomaqbulligini xolisona isbot qiladi. Mazkur nazariya shu xususiyati bilan ilgari hukm surgan ayrim noaniq, ko'pincha til dalillari bilan bog'lanmagan, ya'ni tarjimalarning adekvatligi yoki noadekvatligi to'g'risida quruq, aksariyat hollarda subyektiv mushohada va muhokamalar

yuritgan nazariyalardan farq qiladi. Bunday tadqiqot o'z oldiga qiyoslanayotgan tillar tarkibidagi alohida unsurlarning bir-birlariga mos kelish yoki kelmaslik holatlarini muayyan qilish asosida umumiy tarjima nazariyasi uchun zarur qonuniyatlarni ishlab chiqish vazifasini qo'yadiki, bu hol pirovardida tarjimaviy muvofqlikning yaxlit tizimini vujudga keltiradi. Umuman olganda, hozirgi paytda tarjima muammolarini lingvistik tadqiq qilish sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Bunday tadqiqot tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lmish tarjimashunoslik fanining lisoniy tahlilning yangi sohasi ekanligini, uning hozirgi zamon umumlisoniy muammo asosida rivojlanishi zarurligini ko'rsatadi. Asliyatning kommunikativ teng qiymatliligini ro'yobga chiqarish nafaqat narsa va hodisalar to'g'risida axborot beruvchi nutq vositalarining moddiy-mantiqiy ma'nolarini hamda ularning hissiy-ta'sirchan va obrazli-uslubiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan majoziy vazifalarini to'g'ri talqin qilishni, balki fikrning til ifodasi bilan muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatini belgilaydigan pragmatik aspektini ham nazarda tutishni talab qiladi[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarjima amaliyotini tadqiq qilishning yuqori natijali usuli sifatida ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'zining samaradorligini isbot qilayotgan lingvistik tahlil ikki til nutqiy vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini doimo qiyoslab borish bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, so'nggi yillarda turli-tuman maktab va yo'nalishlar vakillari e'tiborini o'ziga ko'proq tortib kelayotgan jihat — tillarni qiyosiy o'rganish yo'li bilan tadqiq qilinayotgan tillar hodisalarining mohiyatini ochib berish orqali qiyoslanayotgan tillardagi muayyan semantik-stilistik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini oydinlashtirishdan iboratdir. Tarjimaviy umumlashmalar yaratish uchun turli juft tillar vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnning estetik o'ziga xosligini, uning moddiy-mantiqiy hamda hissiy-ta'sirchan va obrazli tizimini tashkil etuvchi unsurlari tarkibidagi mazmuniy-uslubiy va pragmatik xususiyatlarni muayyan qilish stilistik asosga tayanishni taqozo etadi. A.V.Fyodorovning ta'kidlashicha, tilning har bir vositasi badiiy asar tili vositalari to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita uslubiy vazifalar ifodasi uchun xizmat qilishi mumkin: har bir til hodisasi bayon etilgan fikrning ko'lamidan qat'iy nazar ma'lum darajada uslubiy bo'yoq kasb etishi mumkin. Til birliklarining bunday xususiyati tarjima nazariyasini til ma'lumotlarining barcha jihatlarini hisobga olgan holda, lingvotarjimaviy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qiyosiy stilistika bilan yaqinlashtiradiki, ayni hol turli juft tillar birliklarining mazmuniy-uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro vazifaviy mos kelish-kelmasliklari to'g'risida hukm chiqarish imkoniyatini yaratadi. Tarjima amaliyotining bunday tahlil va umumlashmalari mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitgani holda, ayrim amaliy muammolarni hal qilish istiqbollari belgilash uchun zaruriy materiallar beradi. Ular nafaqat lisoniy, balki til ma'lumotlari tarkibidan tashqarida bo'lgan individual ruhshunoslik, jamiyatshunoslik, etnografik, milliy-tarixiy, hududiy va boshqa qator jihatlarni o'z ichiga oladigan pragmatik, g'ayrilisoniy omillarni, shuningdek, muloqot ishtirokchilarining yuqori saviyador qo'shimcha bilimlarini nazarda tutadi, zero, Ya.B.Kasagrantsning ta'kidlashicha, zaruriy ta'sirchanlik tillar tarjimasi yo'li bilan emas, balki madaniyatlar talqini vositasida qo'lga kiritiladi[4].

Tahlil va natijalar. Bunday tadqiqot usuli asardagi til birliklarining vazifaviy-pragmatik ahamiyatini va ularning muayyan matniy holatlarda adekvat o'girilish imkoniyatlarini imkon qadar to'laroq tadqiq qilish zaruratini tug'diradi. Ma'lumki, har bir til o'z tizimining barcha bosqichlarida beqiyos xususiyatlarga ega. Binobarin, turli juft tillar orasidagi o'ziga xos xususiyatlarni muayyan qilish tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Chunki ularning tizimlari orasidagi qonuniy muvofiqlik va tafovutlarni aniqlash turli darajadagi badiiy-tasviriy vositalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasi qonuniyatlarini belgilash imkoniyatini beradi. Bunday holda ikki til tizimining alohida bo'g'inlarini qiyosiy o'rganish — ularning belgilari tizimi orasidagi denotativ, konnotativ va uslubiy muvofiqliklarni muayyan qilish, mazmunni va pragmatik muvofiqlik darajalarini aniqlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, bunday paytda til tizimining alohida unsurlari darajalaridagi ekvivalentlik emas, balki badiiy ifoda tarkibida o'z aksini topgan mazmuniy-uslubiy, hissiy-ta'sirchan va pragmatik vazifalar uyg'unligi asos qilib olinadi.

Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatligini taqozo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti sifatida tan olishni talab qiladi. Bunda ekvivalentlik tushunchasi to'g'ri, yaxshi, sifatli, bejirim tarjimani anglatadi. Ammo ekvivalentlik, ana shu ma'noda yana ishlatiladigan adekvatlik, to'laqonlilik tushunchalari har doim ham amaliy nuqtai nazardan o'zini oqlayvermaydi. Alohida so'z yoki ibora tarjimasiga nisbatan mumkin bo'lgan ekvivalentlik shunday mayda unsurlardan tashkil topgan matn tarjimasi misolida o'zini oqlashi qiyin. Zero, matndan ajratib olingan muayyan lisoniy unurning yaxshi yoki yomon talqin etilgani butun boshli matn haqida tugal fikr bayon qilish imkoniyatini bermaydi. Bas shunday ekan, ekvivalentlik (adekvatlik, to'laqonlilik) alohida birliklar asosida mumkin bo'lgani holda, katta matnlar misolida aksariyat hollarda imkon doirasiga sig'maydi. Asar tarjimasining to'laqonli amalga oshirilishi haqidagi fikr kitobxonning ham, tarjimonning ham orzusi, xolos. Nafaqat keng jamoatchilik, balki mutaxassislar tomonidan yaxshi baholangan asar tarjimasi ham to'la-to'kislikka da'vo qila olmaydi.

Bunday asarni to'laqonli tarjima qilib bo'lmas ekan degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Butun boshli asarni to'la qonli tarjima qilish murakkab ijodiy jarayon bo'lsa-da, uni uddalash amaliy jihatdan mumkin. Bu mas'uliyat tarjimondan har tomonlama chuqur bilim va talant sohibi hamda sabr-toqatli ijodkor bo'lishni talab qiladi. Zero, har qanday til, har qanday lisoniy hamda g'ayrilisoniy omillarni tasvirlash layoqatiga ega. To'g'ri, asliyat tilida mavjud bo'lgan biron lisoniy kategoriya, uslubiy vosita, leksik yoki frazeologik birlikka tarjima tilida moddiy va mazmunan aynan mos keladigan lisoniy vosita topilmasligi mumkin. Bunday paytda asliyat tiliga xos bunday lisoniy vositalar yordamida ifoda etiladigan fikr tarjima tilida uni aynan aks ettira oladigan o'zgacha moddiy ko'rinishli ifoda vositalari yordamida adekvat talqin eta oladi. Alohida unsurlar mos emasligi matnlarning mos kelishiga xalal bera olmaydi. Chunki tarjimada lisoniy vositalar emas, balki ular yordamida ifoda etilgan fikr qayta yaratiladi. Binobarin, ikki til vositalarining moddiy jihatdan bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligi badiiy tarjima amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etmaydi. Tarjima amaliyoti sirlarini mukammal egallagan va uning nazariyasi bilan puxta qurollangan san'atkorgina asliyatga ekvivalent tarjimalar yarata oladi.

Ikki til vositalarini nutqiy darajada qiyoslash tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, mazkur jarayon ikki til nutqiy ifodalari orasidagi munosabatni belgilash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham tarjima nutqiy muloqotning alohida turi hisoblanadi. Bunday paytda shuni nazarda tutmoq kerakki, tarjimaviy qiyosiy tiplari boshqa xil qiyosiy tadqiqotlaridan bir muncha farq qiladi. Jumladan, u tillarning oddiy strukturaviy qiyosidan, ya'ni sof lingvistik qiyosiy tadqiqotdan shu xususiyati bilan farq qiladiki, tarjimaviy qiyosda tillar tizimlari unsurlarining moddiy jihatdan o'zaro mos kelish-

kelmasliklari e'tiborga olinmaydi, balki qiyoslanayotgan tillar vositalarining badiiy-tasviriy, vazifaviy-uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro mos kelishi yoki tafovut qilishi asos qilib olinadi. Shunday qilib, tillarning strukturaviy-qiyosiy tadqiqoti tarjimaviy qiyosning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. U qiyoslanayotgan tillardagi ayrim jihatlarining o'xshash yoki farqlanuvchi tomonlarini ko'rsatgani holda, tarjimaviy qonuniyatlar yaratish uchun boy material beradiki, yaratilgan qonuniyatlar muayyan kontekstlarda muayyan nutqiy vositalarni o'zga tilga talqin qilishning yo'llarini belgilab beradi. Tarjima nazariyasi, deydi V.V.Akulenko, — xuddi qiyosni davom ettirayotganday, ko'pgina juz'iy holatlarni tahlil qilgan va umumlashtirgan holda, o'zaro munosabatda bo'lgan unsurlar ekvivalentligini yanada ravshanroq sharoitlarda — aniq matnlar tarkibida o'rganadi[3].

Modomiki badiiy tarjima ikki til lisoniy-uslubiy hodisalarining qiyoslanishi asosida amalga oshirilgan ekan, keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini lisoniy vositalarni ularning nutqiy holatlaridan kelib chiqib qiyosiy o'rganish o'ziga ko'proq tortmoqda. Chunki bunday paytlarda lisoniy vositalar asarning g'oyaviy-tematik mazmunini muayyan qo'shimcha ma'no — majoziy layoqat kasb etish yo'li bilan obrazli tasvirlab beradiki, til vositalarining bu tarzda uslubiy maqsadlar ifodasi uchun qo'llanishi muallif niyatining ro'yobga chiqishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Bularning barchasi estetik kategoriya hisoblanmish badiiy nutq xususiyatlarini belgilaydi. Shunday qilib, asl nusxa va tarjima tillari hodisalarini lisoniy-uslubiy jihatdan qiyosiy o'rganish tarjimonga mazkur tillar orasidagi o'xshashlik va farqlanishning umumiy qonuniyatlarini muayyan qilish uchun keng imkoniyat tug'diradi. Mavjud qonuniyatlarni o'zlashtirish lisoniy vositalarning muayyan matniy holatlardagi o'rnini xolisona baholash, ularning nafaqat tilda, balki nutqiy jarayonda ham namoyon bo'ladigan hissiy-ta'sirchan va obrazli xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuv pirovardida asl nusxaga pragmatik jihatdan mos, kommunikativ jihatdan teng qiymatli tarjimalar yaratish yo'llarini ochib beradi.

Xulosa: Badiiy tarjimani tahlil qilishning nazariy asoslari tarjimonlarga ushbu ixtisoslashgan sohaning murakkabliklari va muammolarini hal qilish uchun asos yaratadi. Ekvivalentlik nazariyasi, funksional yondashuvlar, pragmatika, semiotika va stilistik tahlil bularning barchasi badiiy tarjimalarning samaradorligini tushunish va baholash uchun ajralmas hisoblanadi. Ushbu nazariy asoslardan foydalangan holda tarjimonlar asl asarning mohiyatini qamrab olishga intilib, butun dunyo tomoshabinlariga tillar va madaniyatlar bo'ylab san'at go'zalligini his qilish va qadrlash imkoniyatini berishlari mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Федоров А.В. Американские и европейские фильмы в советском кинопрокате: данные посещаемости. М.: Директ-Медиа, 2023. 144 с.
2. Лингвистика и поэтика / Сокр. перев. И. А. Мельчука // Структурализм: «за» и «против»: Сборник статей. М., 1975.
3. Akulenko V.V. Kategoriya kolichestva v sovremennykh evropeyskikh yazykakh [Quantity category in the European languages] / V.V. Akulenko, S.A. Shvachko, E.I. Bukreeva. – Kiev: Naukova dumka, 1990. 182 p.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent "O'qituvchi" – 1983.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).